

SHARQ ALLOMALARINING MUSIQIY-RITMIK TARBIYA BO‘YICHA ILMIY-PEDAGOGIK QARASHLARI

Boboyev Abbas Qurvonmurod o‘g‘li
Musiqi madaniyati fani o‘qituvchisi bakalavr

Annotatsiya: Ushbu maqola mazmunida Sharq allomalarining musiqiy-ritmik tarbiya bo‘yicha ilmiy-pedagogik qarashlarining o‘ziga xos jihatlari yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so‘zlar: *mutafakkir, ritm va musiqa, bolalar qo‘shiqlari, oilaviy qo‘shiqlar, motam qo‘shiqlari, allalar, hosil bayrami qo‘shiqlari, cholg‘u musiqasi, xalq raqslari.*

Аннотация: В содержании данной статьи высказаны мнения об отдельных аспектах научно-педагогических взглядов восточных учёных на музыкально-ритмическое воспитание.

Ключевые слова: *мыслитель, ритмика и музыка, детские песни, семейные песни, траурные песни, гимны, песни праздника урожая, инструментальная музыка, народные танцы.*

Abstract: *The content of this article expresses opinions on certain aspects of the scientific and pedagogical views of Eastern scientists on musical and rhythmic education.*

Key words: *thinker, rhythm and music, children's songs, family songs, mourning songs, hymns, harvest festival songs, instrumental music, folk dances.*

Sharqdagi buyuk mutafakkirlarning ritmika sohasidagi ishlariga tayanishni talab qiladi. Bu birinchi va ikkinchi renessansga mansub buyuk olimlarning ishlarida bugungi kunda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan juda qimmatli usullar mavjudligi bilan bog‘liq. Ritmik his-tuyg‘u va tafakkurni tarbiyalashda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqayotgan pedagog buyuk allomalar merosini, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino kabi olimlarning traktatlarini, albatta, o‘rganishi lozim. Chunki ushbu traktatlarda juda qimmatli qonun-qoidalar mavjud. O‘rta Osiyoda musiqiy-nazariy ilm rivojiga to‘xtab o‘tish alohida ahamiyatga ega. Ayni IX-XI asrlarda musiqa faniga asos solinib, O‘rta Osiyoning o‘rta asrda yashagan olimlarining deyarli barchasi bu masala bilan shug‘ullanadilar. Yaqin va O‘rta Sharqda Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom kabi mutafakkirlar ilmiy didaktikani yaratdilar. Bularning ichida Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sinolarning nafaqat didaktik asarlari balki musiqa va san‘atga oid risola va durdona asarlari mavjud. Abu Nasr Muhammad ibn

Muhammad ibn O‘zlug‘ Tarxon Farobiy - buyuk olim, mutafakkir, ensiklopedist 873 yilda Farob (O‘tror) shahri yaqinida Sirdaryo bo‘yidagi Vasij qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning otasi kelib chiqishi turkiy harbiy boshliqlardan bo‘lgan. Farobiy Shosh (Toshkent), Samarqand va Buxoroda o‘qigan. U o‘z bilimlarini mukammallashtirish maqsadida, xalifalik markazi Bag‘dod shahriga yo‘l oladi. Farobiy 70ga yaqin tilni bilgan. Aristotel kabi ilm-fan

namoyandasining asarlarini juda yaxshi bilgani va talqin qilgani uchun Farobiyning “al-Muallim as-Soniy” - “Aristoteldan keyingi ikkinchi muallim”, “Sharq Arastusi” deb ataydilar. 941 yilda muhtojlik olimni Damashq shahriga kelib, uning chekka qismida bog‘ nazoratchisi sifatida ishlashga majbur etadi. Shunga qaramay, u falsafa va boshqa fanlar sohasida faol ishlashni davom ettiradi.

Farobiy Aleppo (Halab) shahrining hukmdori Hamdamid (hukmronlik davri 943-967 yillar) nazariga tushadi. U olimni yashash va ishlash uchun o‘z saroyiga taklif etadi. Biroq Farobiy hayot va ijodda erkin bo‘lishni istab ushbu taklifni rad etadi. U samarali faoliyatini Aleppo shahrida (943-949) davom ettiradi. Farobiy 949-950 yillarda Misrda yashaydi, keyin hayotining so‘nggi kunlarini Damashqda o‘tkazadi. U Damashq shahridagi “Bob as-Sag‘ir” mozoriga dafn qilingan. Farobiyning fanga qo‘shgan hissasi juda ulkan bo‘lib, hozirda uning 200 taga yaqin asari ma‘lum. Saqlanib qolgan kitoblardan quyidagilari mashxur: “Donishmandlik sifatleri”, “Fozil shahar aholisining fikrlari”, “Aql haqida traktat”, “Mantiq ilmiga kirish”, “Davlat to‘g‘risida traktat”, “Fanlar tasnifi haqida kitob”, “Musika haqida katta kitob”. Birinchi bobda qayd etilganidek, Farobiy fundamental nazariy bilimlarga ega bo‘lish bilan bir qatorda, musiqa asboblari ham mohirona ijro eta bilgan. Odamlar uning ijrochilik mahoratidan xayratga tushgan. Tabiiy va gumanitar fanlarni chuqur bilish, tinglovchilar tomonidan musiqani qabul qilishning o‘ziga xos jihatlari nozik his qilish va tushunish, musiqa bilan amaliy shug‘ullanish, Farobiyning musiqiy-pedagogik qarashlarini shakllantirdi va ular olimning asarlarida o‘z aksini topdi.

U har bir san‘atning amalda o‘z qonuniyatlari mavjud bo‘lishi mumkinligiga, ularni o‘rganish san‘atning nima ekanini tushunishga imkon berishga asoslandi. Abu Nasr Farobiy musiqa nazariyasini har tomonlama rivojlantirishdek buyuk xizmatlarni amalga oshirdi.

Keyinchalik Farobiy ham Sharqda ham Yevropada rivojlangan musiqa asboblari to‘g‘risidagi fanga asos soldi. U tanbur, dutor, surnay, shaxruda va o‘sha vaqtda keng tarqalgan boshqa musiqa asboblari ilmiy ta‘rif berdi. Olim musiqa asboblari, vokal notalarining barcha hislatlariga ega bo‘lmasa-da, ovoz kabi huzur baxsh etishini qayd etgandi. Farobiy o‘zining ushbu kitobida ta‘lim olayotganlarning shakllanishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan ritmlarning alohida turlariga e‘tibor qaratadi. U shuningdek, ritm va musiqa, poeziya va ritm o‘zaro ajralmas ekanini, ulardan biri boshqasini to‘ldirishini ta‘kidlagan edi.

Farobiy asarlarini o‘rganib musiqa turlari tuzilishini Farobiyning ritmik uslubi bo‘yicha ishlab chiqishi lozim. Ushbu tuzilish quyidagilardan iborat: xalq qo‘shiqlari va ularning har xil janrlari; cholg‘u musiqasi; xalq raqslari.

Musiqaning barcha turlari she‘riyat bilan bog‘liq, zotan she‘riyat odamlarga musiqaning, ayniqsa qo‘shiqlardagi musiqaning mohiyatini anglashga yordam bergan. Musika va she‘riyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan va buni Farobiyning mazkur fundamental asari tasdiqlaydi. Farobiyning (873-950) “Katta musiqa kitobi”, Ibn Sinoning (980-1037) “Davolash kitobi” qomusidagi “Musika haqida risola”, Al-Xorazmiyning (Xasr) “Bilimlar kaliti”, Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) “Oliyjanoblik

haqida kitob” yoki “Sharafiya” kitobi, A.Yamiyning (1414-1492) “Musika haqida risola” kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg‘ulari haqida muhim ma’lumotlar bayon etiladi [8.37].

Farobiy risolalarida musiqa janrlari va shakllarining tasnifi ishlab chiqilgan. Bular birinchi navbatda quyidagi kabi janrlardir: xalq qo‘shiqlari janrlari, marosim, mavsum qo‘shiqlari, Navro‘z, bahorga bag‘ishlangan qo‘shiqlar, bolalar qo‘shiqlari, oilaviy qo‘shiqlar, motam qo‘shiqlari, allalar; hosil bayrami qo‘shiqlari, diniy bayramlar bilan bog‘liq qo‘shiqlar (Ramazon oyida, hayitlarda ijro etiladigan kuy qo‘shiqlar); cholg‘u musiqasi janrlari - tabiat obrazlari bilan bog‘liq cholg‘u kuylari, lirik ohanglar, ayniqsa, nay navolari. G‘ijjak ohanglari odatda qalb holatini, muhabbat va qayg‘u tuyg‘ularini ifodalaydi. Dutor kuylari raqs xususiyatiga ega bo‘lib ritm rivojida alohida ahamiyatga ega. Masalan, chertmak ohangi ritmni rivojlantiradi. Lapar esa tinglovchiga ritmik ruh bag‘ishlaydi.

O‘quvchilarni musiqiy ritmikaga o‘qitish jarayoni tarixiy-nazariy ma’lumotlar hamda zamonaviy ritmik ta’limning uslublarini optimallashtirish asosida takomillashtirilishi ritmik ko‘kikmalarni hosil qiladi. O‘qituvchi Farobiy asarlariga murojaat qilish orqali, ta’lim berishning o‘zigagina hos uslubini tanlashi va talabalarga xalq merosining yuksak ma’naviy-ruhiy qadriyatlarini singdira olishi lozim. Bularning barchasi musiqiy ta’lim tizimini uzluksiz takomillashtirib borilishini talab etiladi. Farobiy traktatlaridagi harakat va raqslar to‘g‘risidagi qoidalar musiqa o‘qituvchisi uchun katta metodologik ahamiyatga ega. Ularni o‘rganish insonning butun ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, uni har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalaydi. Farobiyning ta’kidlashicha, harakat inson hayotida juda muhim ahamiyat kasb etadi. U to‘g‘ri nafas olish, sarv qomat va chiroyli qadam tashlab yurishni shakllantiradi.

Harakat mehnat faoliyati bilan bog‘liq va o‘yinda tarbiyaviy ahamiyatga ega. Harakat va raqs asosida insonning mehnatga, oilaga muhabbati shakllanadi. Farobiy unga alohida e’tibor qaratadi va yosh pedagog buni rivojlanish tajribasi sifatida e’tiborga olishi kerak. Farobiyning “Musika haqida katta kitob”i har tomonlama komil shaxsni tarbiyalashdek yagona maqsadga birlashtirilgan traktatlar majmui sifatida yaratilgan.

Pedagog Farobiy asarlarini o‘rganish asnosida, o‘zining pedagogik tizimi va metodik prinsiplarini musiqiy ta’limning hozirgi zamon talablariga mos ravishda shakllantiradi. Shu munosabat bilan Farobiy asarlaridagi ohang tuzilishi va ritmlar tasnifiga e’tibor qaratishi zarur. Olim ohanglar tuzilishining butun bir qatorini taklif etgan bo‘lib, o‘qituvchi ular asosida monodik fikrlashni shakllantirishi, ularni monodik an’analar bilan qo‘shishi, monodik eshitish qobiliyatini rivojlantirishi, intonatsion ritmik hosilalarni o‘zlashtirishi va ularning jozibasini eshita bilishga va his qilishga o‘rganishi lozim. O‘qituvchi ta’lim berish asnosida, o‘quvchi diqqatini monodiyani bezashning go‘zalligiga, farshlaglar, kuylash, ovoz tebranishlari va melizmatikaga (bularning barchasi “ornamentika” deb ataladi) qaratishi kerak.

Farobiy asarlarida ritmlar va ularning tuzilishlari tadqiq qilinishi muhim metodologik ahamiyatga ega. Ular ritmlarni oddiy va murakkabga ajratadi. Ikki qismli, uch qismli, ostinat ritmlar, nusxa olingan ritmlar. Bum-baka bum ritmaformulasining o‘zi ko‘plab turlar

va variantlarga ega va talabalarni ufor ritmlari yoki usullari (6/8 o‘lchamdagi) bilan tanishtirish foydalidir. Ko‘pincha ufor ritm ijobiy ritmoshakl deb hisoblanib, u ayniqsa, bayramona kayfiyatlarni bo‘rttirib namoyon qiladi. Maqomning turkumli cholg‘u yo‘llari odatda, ufor qismlari bilan yakunlanadi [6.131]. Talabalar (o‘quvchilar) ning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ular tomonidan yengil qabul qilinadigan monodiyalar va ritm usullarini tanlash zarur bo‘ladi. Shu bois ulardan o‘quv jarayonida keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ma‘lumki, o‘zbek an‘anaviy musiqasi o‘tmishdan ikki yo‘nalish ya‘ni bir-biridan paydo bo‘luvchi, bir-birini to‘ldiruvchi, shu bilan birga o‘zining alohida xususiyatlari va sifatlariga ega bo‘lgan yo‘nalishlardan tashkil topgan. Farobiyning yozishicha insonning har qanday nazariy san‘atdagi kamoloti uning uchta fazilatga ega bo‘lishi bilan belgilanadi. Ulardan birinchisi - ushbu san‘at asoslarini to‘la anglab yetish, ikkinchisi - mazkur san‘atning mavjud predmetlari asoslaridan kelib chiquvchi zaruratni bilib olish qobiliyati, uchinchisi - ushbu fandagi falsafiy ma‘lumotlarni o‘zlashtirish, boshqa nazariyotchilarning qarashlari to‘g‘riligini tekshirish, ularning noto‘g‘ri mulohazalaridagi sog‘lom fikrlarni aniqlash va yangilishganlarning xatolarini tuzata olish qobiliyati.

Insonning bu san‘atni o‘zlashtirishiga kelsak, inson dastavval bu san‘atning amaliy tomonlarini o‘zlashtirdi. Eshitilgan har bir asarning asosiy mazmuni eshituvchining ongida kuy sifatida saqlanadi [4.14]. Ya‘ni, ovoz yordamida nutq organlarini harakatga keltirib, kuy ijro etish orqali, o‘zidan oldin ushbu kuy va tovushlarni o‘zlashtirganlarga taqlid qilish barobarida, eshitish va ko‘rish hislarini ham takomillashtirib bordi.

Talabalarining mustaqil ishlash jarayonlari bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Muntazam mashg‘ulotlar natijasida, inson bu mahoratni yo to‘la to‘kis, yoki tabiat unga in‘om etgan imkoniyat darajasida egallaydi.

Farobiy traktatlaridagi ritmik tuzilishlar tasnifiga e‘tibor qaratish zarurki, uni hozirgi davrdagi musiqiy amaliyotda foydalanishga moslashtirish kerak bo‘ladi. O‘zbekiston va Qozog‘iston olimlari musiqiy ritmikani tadqiq etishga ilmiy jihatdan katta hissa qo‘shdilar. O.Matyobovning “Farobiy va Sharq musiqasi”, hamda qozoq olimasi Saida Daukaevaning asarlari shular jumlasidandir. Saida Daukaeva o‘zining “Al Farobiyning ritm nazariyasi va aruz” kitobida Farobiy she‘riyati ritmik qirralarining barcha jihatlarini yorqin asoslab berdi. Uning Al Farobiy qator asarlarini, shu jumladan, ushbu mavzuga mahsus bag‘ishlangan asarlarini keng miqyosda o‘rganishi, Farobiyning ritm nazariyasiga bo‘lgan doimiy qiziqishidan dalolat beradi. Ularda bayon etilgan ritm to‘g‘risidagi ta‘limotning o‘ziga xos jihatlar esa arab an‘analari rakursida (nuqtai nazar) tushunarli bo‘ladi.

Farobiy ta‘limotida musiqiy va she‘riy ritmning o‘zaro bir-birini taqozo etishi ularning ham kompozitsiyada birgalikdagi harakati darajasida, ham umumiy tushunchalar va terminologiyadan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Masalan, jarangdor va jarangsiz tovush belgilari (xarf mutaxarrik, xarf sokin) o‘ziga xos ritmik zarblarning (naqorat) nomlariga ko‘chirib o‘tkaziladi, davomiyliklarning turlari esa bo‘g‘inning (maqta) har xil shakllari va she‘rdagi turoqlar (sabab, vatad, fasila) bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. O‘qituvchi amin

bo‘lishi kerakki, she’riy matn qanchalik chuqur ochib, tushunilsa, qo‘shiq ijrosi shunchalik oson, to‘g‘ri va ifodali bo‘ladi [7.44].

Vokal-cholg‘u musiqasining sof cholg‘u ijrochiligidan estetik ustunligi she’riyat va yanada kengroq olganda, arab madaniyatidagi badiiy so‘z ritmikasi bilan alohida aloqadorlik kontekstida ayon bo‘ladi [9. 82].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Abdullaev R.S. O‘zbek mumtoz musiqasi. – Toshkent, 2008. – 112 s.
3. Гафурбеков Т. Творческие ресурсы национальной монодии и их преломление в Узбекской советской музыки. – Тошкент, 2020. – 110 с.
4. Дубовский. И.И., Евсеев С.В., Способин И.В., Соколов В.В. Гармония дарслиги. – Тошкент, 2009. – 445 б.
5. Ismoilova Z.K. Pedagogika. – Toshkent, 2007. – 160 b.
6. Rajabov I. Maqom asoslari. – 2-nashr. – Toshkent, 2019. – 154 b.
7. Ташбаева Д. Методика преподавания музыки и школьный репертуар. – Тошкент, 2007. – 191 с.
8. Tashmatova A. Ijrochilik san’ati tarixi. – Toshkent, 2017. – 304 b.
9. Fayzullaev E.M. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o‘zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.fan.nomz... dissertatsiyasi. TDPU. T.: 2010y.
10. <https://lex.uz/uz/>
11. www.Ziyonet.uz